



3000 so'm

4
1235

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

5



ISBN 978-9943-979-02-4



9 789943 979024

POLIGRAPH
SERVICE

WWW.NATLIB.UZ


K72

Kostetskiy V. A.

Konstitutsiya olamiga sayohat Q.2 : umumiy o'rta ta'lim maktablari-
ning 5-sinfi uchun o'quv qo'llanma / V. A. Kostetskiy , G. M. Tansiqboyeva ,
R. I. Rahimov - Toshkent : Yangiyo'l Poligraf Servis, 2014. - 48 b.

ISBN 978-9943-979-02-4

UO'K: 342.4(075)
KBK 67.400.1(50')



KOSTETSKIY V. A., TANSIQBOYEVA G. M., RAHIMOV R. I.

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

**Umumiy o'rta ta'lim maktablaring
5-sinfi uchun o'quv qo'llanma**

II qism

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan*



**TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2014**

Mualliflar jamoasi:

Kostetskiy V. A., Tansiqboyeva G. M., Rahimov R. I.

Metodist – *N. Ismatova*, Respublika ta'lim markazining
Ijtimoiy fanlar bo'limi boshlig'i

Taqrizchilar: *S. Hidirov* – yuridik fanlar nomzodi.
M. Najimov – yuridik fanlar nomzodi.

SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan



«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlash-
tirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dan



O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasidan



O'tilgan mavzularni mus-
tahkamlash uchun savollar



Eslab qoling!



Mavzu bo'yicha berilgan
topshiriqlar



Faollashtiruvchi savol
va topshiriqlar



Uyga topshiriq

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Ta'lim standartlariga muvofiq tayyorlangan. Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tushunchalari hammabop va maroqli tarzda bayon etilgan. O'quv qo'llanmasidagi ko'plab misollar va topshiriqlar ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan materialni oson o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashni kamol toptirish imkonini beradi.

KOSTETSKIY V. A., TANSIQBOYEVA G. M., RAHIMOV R. I.

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
5-sinfi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — Yangiyo'l poligraf servis — 2014

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir — *J. Azimov*

Texnik muharrir — *M. Riksiyev*

Sahifalovchi — *K. Kostetskiy*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 07.11.2014.

Bichimi 60x90^{1/16}. «Arial» garniturası.

Ofset bosma usulda bosildi. Bosma tabog'i 3,0.

Nusxasi 50 000 (I zavod 20 000).

Buyurtma № 90-14.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44.

© Kostetskiy V., 2012, 2014.

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2012, 2014.

ISBN 978-9943-979-02-4

MUNDARIJA

Jamiyat va oila


<i>O'ninchi sayohat</i>	
«Qo'rg'onim»	4
<i>O'n birinchi sayohat</i>	
Oilada bola huquqi.....	7
<i>O'n ikkinchi sayohat</i>	
Oiladagi burchlar	10

Mustaqil bo'lish huquqi

<i>O'n uchinchi sayohat</i>	
Bu — meniki	15
<i>O'n to'rtinchi sayohat</i>	
Bu — bizniki.....	20

Majburiyatlar va javobgarlik

<i>O'n beshinchi sayohat</i>	
Javobgarlik (mas'uliyat) nima?	24
<i>O'n oltinchi sayohat</i>	
Bizning burchlarimiz	27
<i>O'n yettinchi sayohat</i>	
Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish	31
<i>O'n sakkizinchi sayohat</i>	
Yakunlovchi sayohat.....	35
O'tilganlarni yodga olamiz	38
Lug'at.....	43



O'quv qo'llanmada **Prezident Islom Karimovning** qonunchilik tashabbuslariga muvofiq **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga** kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar inobatga olingan



Oila — davlatdagi bir davlatdir



1. Rasmlardagi insonlarni nima birlashtiradi?
2. Oilaning konstitutsiyaviy huquqlari haqida nimalarni bilasiz?

Har bir inson «oila» so'zi qulog'iga chalinganda o'ziga aziz narsalarni: buvisi yopgan kulchanning betakror isini, dasturxon tevaragidagi oilaviy choyxo'rlikni, onasining yoqimtoy tabasumini, dadasining baquvvat qo'llarini, aka-ukalari va opa-singillari bilan quvnoq o'yinni, o'z o'yinchoqlarini va, muhimi, iliqlik, mehr-muhabbat va g'amxo'rlikni ko'z oldiga keltiradi.

«Oila» so'zi siz uchun qanday ahamiyatga ega?

Insonning butun umri oilada kechadi. Aynan oilada yurish-turish me'yorlari, milliy urf-odatlar va an'analar avloddan av-

Siyosat — mamlakatdagi, jamiyatdagi umumiy ishlarni hal qilish bo'yicha ishlar.

Soliq — umumiy ishlarni hal qilish uchun davlatga maxsus to'lov.

Sud hokimiyati — odil sudlovni amalga oshiruvchi hokimiyat tarmoqlaridan biri.

Fuqarolik — inson bilan davlat o'rtasidagi inson va davlat bir-biriga nisbatan muayyan huquqlarga ega bo'lishida hamda majburiyatlarni zimмага olishida namoyon bo'luvchi aloqa.

Shaxsiy huquqlar — har bir odam, davlat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar, ega bo'ladigan inson huquqlari.

Yurist — huquq bo'yicha mutaxassis.

Qonun — davlat umummajburiy huquqiy normalarni mustahkamlab qo'ygan hujjat.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat — davlat hokimiyatining qonunlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishi bilan shug'ullanuvchi tarmog'i (Oliy Majlis).

Hukumat — davlatda ijro etuvchi hokimiyatga rahbarlik qiluvchi davlat organining nomi.

Huquq — birgalikdagi turmush uchun eng muhim va barcha kishilar uchun umumiy davlat tomonidan muhofaza etilishi shart bo'lgan qoidalar. Huquqning maqsadi jamiyat yaxlitligini saqlashdir.

Huquq normasi — qolgan barcha huquqlardan farqli o'laroq: a) kishilarning birgalikdagi turmushi uchun eng muhim; b) jamiyatdagi barcha kishilar uchun umumiy; d) davlat tomonidan muhofaza etilishi shart bo'lgan yurish-turish (muomala) qoidalari.

etish va kundalik umumiy ishlarni hal qilishdan iborat davlat hokimiyati tarmog'i.

Inson huquqlari — har bir insonga tabiatan xos bo'lgan va har bir madaniyatli inson ularsiz yashay olmaydigan huquqlar.

Konstitutsiya — davlatdagi davlat tuzilishini mustahkamlab qo'yuvchi eng oliy, asosiy qonun.

Ma'muriy huquq — ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga bag'ishlangan qoidalarni birlashtiruvchi huquq tarmog'i.

Mahalliy o'zini o'zi boshqaruv — joylardagi ishlarning aholi tomonidan mustaqil hal etilishi.

Ichki ishlar — jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibotini muhofaza qilish bo'yicha davlat huquqni muhofaza qilish organi.

Muqaddima (preambula) — muhim hujjatlarning kirish qismi.

Norma — me'yor.

Odat — muayyan joy yoki turmush tarziga mansub kishilar uchun odatiy bo'lgan muomala qoidalari.

Odil sudlov — maxsus davlat organlarining (sudlarning) fuqarolar huquqlarini himoya qilish va alohida qat'iy protseduralar asosida nizolarni hal etish borasidagi faoliyati.

Prezident — saylab qo'yiluvchi davlat boshlig'i.

Respublika — davlat boshqaruvi shakli bo'lib, unda butun hokimiyat saylab qo'yiladigan organlarga parlament va prezidentga tegishli bo'ladi.

Referendum — majburiy kuchga ega bo'lgan qandaydir masala yuzasidan yalpi ovoz berish.

Senzura — bosma nashrlar, gazetalar, jurnallar, kitoblar ustidan davlat nazorati bo'lib, so'z erkinligi jiddiy cheklanishini anglatadi.

lodga yetkaziladi. Ota-onalar shularga tayanib o'z bolalarini tarbiyalaydi. Oila — o'z qonunlari va an'alariga ega bo'lgan jajji davlatdir. Jamiyatimiz kelajagi ham ota-onalar o'z bolalarini qanday tarbiyalashiga bog'liqdir. Shu boisdan davlat oilaga g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaga butun bir boshli bob bag'ishlangan.



Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

63-moddasidan.



1-topshiriq.

5–6 kishilik guruhlarga bo'lining. O'z guruhingizga oilangizda qaysi urf-odat va an'analarga rioya etilishi haqida hikoya qilib bering. Masalan, muammolar umumiy muhokamasi, oilaviy bayramlar, qarindosh-urug'lar va tanish-bilishlarnikiga birga borish.

Jamiyatimizni har bir xonadoni alohida bir oila bo'lgan ko'p qavatli uy ko'rinishida tasavvur etish mumkin. Oila qanchalik mustahkam va barqaror bo'lsa, uy ham, ya'ni butun jamiyat va davlat ham shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi.

Oilaga davlat g'amxo'rligi



1-rasmdagi oila a'zolari va 2-rasmdagi otaxonlar davlatimizning qanday imtiyozlaridan foydalanadilar deb o'ylaysiz?

Har bir oila o'z hayoti bilan yashaydi, unda turli-tuman muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Ota-onalar o'z bolalari tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan yoki bu narsani ularga ziyon tariqasida amalga oshiruvchi notinch oilalar ham uchraydi. Bu holda davlat bolalarni muhofaza etadi va ota-onalardan konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishni talab qilishi mumkin.

Davlatimiz oilani qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan siyosat yuritmoqda.

Bularning bari bolalarni tarbiyalashda oilaga madad berish, onalik va bolalikni himoya qilish maqsadida amalga oshirilmoqda.



Biz mustaqillik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelmoqdamiz.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo'yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevor yaratilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.



1. Prezidentimiz Asosiy qonunimizda oilaning ijtimoiy maqomi belgilab qo'yilishini qaysi ishlarning huquqiy poydevori sifatida tariflamoqda?



1. Oila a'zosi sifatida qanday huquqlarga egasiz?
2. Oilangizdagi ixtiloflar qay ta'riqa bartaraf etiladi?
3. Ixtilof paytida o'zingizni qanday tutasiz?
4. Nega tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaga bolaning ota-onasi haqida ma'lumotlar yozib qo'yiladi?

LUG'AT

An'analar — kishilar xuddi ajdodlari singari ish ko'rishini talab etuvchi avloddan avlodga o'tadigan axloqiy qadriyatlar, urf-odat, marosimlar, qoidalar.

Axloqiy qoidalar (normalar) — inson yurish-turishini Ezgulik va Yovuzlik nuqtai nazaridan baholovchi qoidalar.

Budjet — davlat, tashkilot, oila yoki kishining qandaydir davrdagi daromad va buromadi, shuningdek, ana shu daromad va buromad yozib qo'yilgan hujjat.

Davlat — umumiy ishlarni hal qilish uchun butun jamiyatni uyushtirish.

Davlat organi — umumiy ishlarni hal qilish maqsadida maxsus tashkil qilingan tashkilot yoki idora.

Davlat hokimiyati — jamiyatdagi umumiy ishlarni hal qilish borasidagi alohida huquq va majburiyatlar.

Davlatning fuqarosi — umumiy ishlarni hal qilishda ishtirok etish va ushbu davlat umumiy ne'matlaridan foydalanish bo'yicha alohida huquq va burchlarga ega kishi.

Demokratiya — inson huquqlari hurmatlanadigan, xalq esa umumiy ishlarni hal qilishda faol ishtirok etadigan siyosiy tartibot.

Deputat — vakillik, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga xalq tomonidan saylab qo'yiladigan vakil.

Jamiyat — bir joyda, mamlakatda yashaydigan va ko'plab o'zaro aloqalar bilan bog'langan kishilar.

Jinoyat — Jinoyat kodeksida taqiqlangan eng xavfli huquqbuzarlik.

Ijro etuvchi hokimiyat — asosiy vazifasi qonunlarni ijro

- b) A. Oripov — matn, M. Burhonov — musiqa;
 d) M. Burhonov va A. Oripov matn va musiqani hamkorlikda yaratishgan.

27. Davlatning qaysi organi qonunlar qabul qiladi?

- a) Oliy Majlis;
 b) Vazirlar Mahkamasi;
 d) Adliya vazirligi.


28. «Konstitutsiya» soʻzi lotinchadan tarjima qilinganda ni-mani anglatadi?

- a) asosiy qonunni;
 b) farmonni;
 d) qoidalar, nizomni.

Oʻn birinchi sayohat



OILADA BOLA HUQUQI



1. Rasmlardagi oilalarning har bir aʼzosi oʻz uylarida qanday huquqlarga egalar?
2. Siz oʻzingiz oilangizda qanday huquqlarga egasiz?

Xuddi davlatdagi singari oilada ham har kimning oʻz huquq va burchlari (majburiyatlari) mavjud. Bolaning eng asosiy huquqi oilada tarbiyalanish huquqidir. Ota-onalarning eng asosiy burchi esa bolalarga gʻamxoʻrlik qilishdir. Ota-onalar bolalarni parvarishlaydi, ularga kiyim-kechak va boshqa zarur narsalarni xarid qilib olib beradi, oʻqishda va boshqa ishlarda yordam beradi. Ona va ota oʻz bolalari salomatligi borasida qaygʻuradi, muvaffaqiyatsizligidan xafa boʻladi va ularning yutuqlaridan

olam-olam quvonch tuyadi. Bularning hammasini ular qonun shunga undagani uchungina emas, balki o'z farzandlarini jon-dan sevganidan qiladilar.



1-topshiriq.

Sizningcha, nega ota-onangiz qilmishlaringizga ba'zan qat'iy munosabatda bo'ladilar?

O'ylab ko'ring-chi, ota-onangizni qattiq sevishingizni ular tushunishi uchun nimalar qilishingiz mumkin ekan?

Ammo hayotda bola ota-onasiz qoladigan hollar ham uchrab turadi. Ana shunda unga g'amxo'rlik qilishni davlat zim-masiga oladi.



...Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onala-rining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi...

64-modda

Agar bola mushkul ahvolga tushib qolsa, o'zini odamlar ora-sida qadr-qimmatli va baxtiyor his etishi uchun u jamiyat va har bir insoning alohida e'tibori va g'amxo'rligida bo'lishga haqlidir.



2-topshiriq.

O'qing va o'ylab ko'ring.

Kim haq?

Bir kuni Mavluda maktabdan yugurib keldi-da, osto-nadayoq qichqirdi:

— Oyijon, Po'latning ota-onasi ajrashyapti ekan!

— Bunaqasi ko'p uchraydi, — dedi onasi. — Ammo nega bunchalik hayajonlanib ketding, qizalog'im?

— Po'lat sinfdoshim-da, oyijon! Endi u juda xa-fa yuribdi, oyisi dadasi bilan uchrashib turishiga qo'ymasmish. Hamma sinfdoshlar Po'latga yordam berishga ahd qildik. Po'lat bilan dadasining uchrashu-vini oramizdan kimningdir uyida o'tkazmoqchimiz.

20. Konstitutsiya muqaddimasi nima?

- a) Konstitutsiyaning kirish qismi;
- b) Oliy Majlis yig'ilishida deputatlar nutqi;
- d) qabul qilingan qonunning bekor qilinishi.

21. «Demokratiya» so'zi grekchadan tarjima qilinganda ni-mani anglatadi?

- a) xalq hokimiyatini;
- b) davlatni;
- d) teng huquqlilikni.

22. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- a) 1991-yil 8-dekabrda;
- b) 1992-yil 8-dekabrda;
- d) 1993-yil 8-dekabrda.

23. Qachon O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil to'ldi?

- a) 2001-yilda;
- b) 1999-yilda;
- d) 2011-yilda.

24. Konstitutsiya bo'yicha davlatimiz qanday ataladi?

- a) Mustaqil O'zbekiston Respublikasi;
- b) O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- d) O'zbekiston Respublikasi.

25. O'zbekistonda davlat boshlig'i kim, ijro etuvchi hokimi-yatga kim boshchilik qiladi?

- a) Vazirlar Mahkamasining Raisi;
- b) Prezident;
- d) Bosh vazir.

26. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi matni va musiqasi mualliflari kim?

- a) M. Burhonov — matn, A. Oripov — musiq;

14. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qachon tasdiqlangan?

- a) 1991-yil 10-dekabrda;
- b) 1992-yil 10-dekabrda;
- d) 1993-yil 10-dekabrda.

15. Qonun — bu:

- a) davlat jamiyat hayoti uchun eng muhim qoidalarni mustahkamlab qo'ygan hujjatdir;
- b) jamiyatda kishilar muomalasidagi umum qabul qilgan me'yorlardir;
- d) jamiyat hayoti qoidalarini buzganlik uchun jazolash to'g'risidagi maxsus qonundir.

16. O'zbekiston Respublikasi qaysi yili Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan?

- a) 1992-yil 2-martda;
- b) 1991-yil 2-martda;
- d) 1993-yil 2-martda.

17. Mulkdorlik huquqi nima?

- a) narsaga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishdir;
- b) narsaga egalik qilish va foydalanishdir;
- d) narsadan foydali xossalarni o'zlashtirish huquqidir.

18. Davlat budjeti — bu:

- a) umumiy muammolarni hal qilish uchun soliqlar yig'imidan olingan davlat pul mablag'laridir;
- b) davlatdagi banklarning pulidir;
- d) davlat hududida muomalada bo'lgan hamma puldir.

19. Ta'lim oluvchilarning kundalik huquq va burchlari qaysi hujjatda sanab o'tilgan?

- a) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida;
- b) Maktab ustavida;
- d) Jinoyat kodeksida.

— Bu ish sen o'ylaganchalik oson emas, qaqildog'im. Bunga aralashishga haqqingiz ham yo'q, — javob berdi onasi.

Mavluda norozilanib dedi:

— Po'lat iztirob chekyapti-ku, otasi bilan uchrashmoqchi-ku! O'zingiz aytgan edingiz-ku, do'st boshiga ish tushganda yolg'iz tashlamagin deb!



1. Matndan qaysi faktlar haqida bilib oldingiz?
2. Mojaro nimadan iborat?
3. Po'latga qanday maslahat berish mumkin?
4. Mavludaning o'rnida bo'lganligida nima qilardingiz?



Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

46-modda



Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

44-modda



1. Oilada bolalarning qanday huquqlari bor?
2. Bolani tarbiyalashda ota-onaning qanday huquqlari bor?
3. Davlat bolalarga qanday kafolatlar beradi?



Uyga vazifa.

1. «Istardimki, ota-onam...» jumlasini davom ettirib, «ideal ota-ona»ga oid o'z variantingizni taklif eting.
2. Ota-onangizga kutilmagan ajoyib sovg'a keltiring. Darsdagi guruh bilan 1-topshiriqni bajarayotganda nimaga ahd qilgan bo'lsangiz, shuni amalga oshiring.



OILADAGI BURCHLAR

Oilada burchlarning taqsimlanishi

Deydilarki, oila – mustahkam qo'rg'on: u turli yoshdagi, fe'l-atvori, kasb-kori turfa xil kishilar boshini qovushtiradi. Ulardan har biri alohida olganda shaxs, birgalikda esa qarindoshlar, oiladir. Oila a'zolarini mehr-muhabbat, o'zaro tushunish, madad berish istagi bog'lab turadi. Uyda qandaydir ishni bajara turib, biz bir-birimizga yordam beramiz.



1-topshiriq.

Oilangizda burchlar qanday taqsimlangan? Jadvalni to'ldiring.

Oiladagi burchlarim	Onamning ishlari va tashvishlari	Otamning burchlari	Oilaning boshqa a'zolari burchlari	Birgalikdagi ishlarimiz



Quyidagi savollarga javob bering:

1. Xonadoningizda oilaviy yumushlarni eng ko'p kim bajaradi?
2. Qarindoshlaringiz burchidan bir qismini zimmangizga olasizmi? Ular uchun nimalarni qila olasiz?
3. Oiladagi majburiyatlaringizni hamma vaqt bajarasizmi?
4. O'z burchingizni ado etmasangiz, oilada nima sodir bo'ladi?
5. Ota-onangiz o'z burchlarini bajarmasa, nima ro'y beradi?
6. Har kim o'z burchini bilishi va bajarishi nega muhim?

7. O'zbekiston fuqarolari qaysi yoshdan boshlab deputatlar saylovida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi?

- a) 14 yoshdan boshlab;
- b) 16 yoshdan boshlab;
- d) 18 yoshdan boshlab.

8. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati qaysi hokimiyat tarmoqlariga bo'lingan?

- a) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchiga;
- b) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga;
- d) qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, prezident, sud hokimiyatiga.

9. «Simvol» so'zi grekchadan tarjima qilinganda nimani anglatadi?

- a) tanishtiruvchi belgini;
- b) signalni;
- d) nomni.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qachon tasdiqlangan?

- a) 1992-yil 18-noyabrda;
- b) 1991-yil 18-noyabrda;
- d) 1993-yil 18-noyabrda.

11. Nemischa «gerb» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) merosni;
- b) belgini;
- d) ramzni.

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qachon tasdiqlangan?

- a) 1991-yil 2-iyulda;
- b) 1992-yil 2-iyulda;
- d) 1993-yil 2-iyulda.

13. Grekcha «gimn» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) tantanavor qo'shiqni;
- b) davlat asosiy qo'shig'ini;
- d) mamlakat tarixini.

O'TILGANLARNI YODGA OLAMIZ

Sayohatimiz asosiy mundarijasini qanchalik o'zlashtirganingizni tekshiring. Javob berishga qiynalsangiz, uni darslik matnidan toping.

1. Davlat nima?

- a) qadimgi odamlarda qabilani boshqarish;
- b) umumiy ishlarni hal qilish uchun butun jamiyatni uyushtirish;
- d) bir mamlakatda yashovchi kishilar.

2. Davlatning bosh vazifasi:

- a) mamlakat aholisi umumiy ishlarini hal qilishdir;
- b) jinoyatchilik bilan kurashdir;
- d) pensionerlar va nogironlarga yordam berishdir.

3. Davlat organlari kimning oldida javobgar?

- a) Oliy Majlis oldida;
- b) jamiyat va xalq oldida;
- d) sud oldida.

4. Davlat kimga xizmat qiladi va kimning manfaatlarini ifoda etadi?

- a) xalqqa xizmat qiladi va uning manfaatlarini ifoda etadi;
- b) mamlakat hukumatiga xizmat qiladi;
- d) mansabdor shaxslarga xizmat qiladi va ularning manfaatlarini ifoda etadi.

5. Konstitutsiyaga muvofiq mamlakatimizda kim hokimiyatning birdan bir manbayi sanaladi?

- a) xalq; b) hukumat; d) prezident.

6. Referendum — bu:

- a) prezident saylovidir;
- b) o'ta muhim masalalar yuzasidan yalpi umumiy ovoz berishdir;
- d) deputatlar saylovidir.

Ota-ona va bola



1. Rasmlarga qarang. Nima deb o'ylaysiz, bolalar imkoniyatlari darajasidagi uy ishlarini bajaryaptilarmi?
2. Bolalarning uy ishlarida ota-onalariga yordam berishlari ularning huquqlarimi yoki burchlarimi?
3. Oiladagi o'z vazifalaringizni sanab bering.

Ko'pgina oilalarda bolalar ota-onalariga uyni yig'ishtirish, ovqat tayyorlash, uy hayvonlariga qarash va hokazo uy yushlarini bajarishda yordam berishga intiladilar.

Davlatimiz oila a'zolarining o'z burchlarini bajarishi zarur va muhim deb hisoblaydi hamda bu narsani Konstitutsiyada mustahkamlab qo'rgan:



Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar...

64-modda

Ota-onalar farzandlari voyaga yetgunga qadar, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilgan holda, muammolarni bolalari bilan birgalikda hal qiladilar. Masalan, ota-onalar farzandlari qayerda yashashini, qanday ovqatlanishi kerakligini, qanday kiyim kiyishini, ta'lim olishini hal qiladilar, ularning salomatligi va rivojlaniishi xususida qayg'uradilar.

Aynan shu narsa ota-onalarning burchi bo'lib, bolalarga g'amxo'rlik qilishga, ularga yordam berish va muhofaza etishga qaratilgandir. Basharti, oilada o'zaro bir-birini tushunish, bir-biriga mehribonlarcha munosabat va g'amxo'rlik muhiti qaror topsa, ota-onalar farzandlariga o'z fikrlarini o'tkazishlariga hojat ham qolmaydi.

Ayrim oilalarda esa qandaydir ishni ota-onalari xohlaganidek qilmagani uchungina bolalarni jazolaydilar.



2-topshiriq.

Sizningcha, ota-onalar bolalarini kaltaklashga haqlimi? Fikringizni ifodalang:

— «Ha»;

— «Yo'q»;

— «Ba'zida»;

O'z tanlovingizni tushuntiring.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ota-onalar farzandining tarbiyasi uchun, u o'zini jamiyatda qanday tutishi uchun javobgar bo'ladilar. Ammo, ular bolalariga shafqatsiz va qo'pol muomala qilsalar, ularni tahqirlasalar, ularni kuchi yetmaydigan ishlarni bajarishga majbur qilsalar, unda bunday ota-onalar ota-onalik huquqlaridan mahrum etiladilar.

Bola ota-onasi tomonidan qilingan suiiste'mollardan muhofazalanishga haqlidir. Huquqlaringiz va qonuniy manfaatlaringizga putur yetkazilganda sinf rahbariga, maktab direktoriga, vasiylik va homiylik organiga, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga, mahalla qo'mitasiga, 14 yoshga to'lgandan so'ng sudga murojaat qilishingiz mumkin.



O'qing va o'ylab ko'ring.

Chol nega ko'z yoshi to'kdi?

Chekka qishloqlardan birida chol yashar ekan. Cholning xotini allaqachonlar o'lib ketgan ekan. Keng dunyoda cholning yakka-yu yagona suyukli o'g'lidani o'zga hech kimi yo'q ekan. Butun umri davomida qariya o'zi yemaganni unga yedirib, kiy-

mamlakat madaniy merosi va atrof tabiiy muhitni avaylab asrash demakdir. U o'z-o'ziga hech qachon va hech yerda ziyon yetkazmaydi va boshqalar ziyon yetkazishiga yo'l qo'ymaydi. Chinakam fuqaro shodumon, farahli kunlarda ham, og'ir damlarida ham o'z mamlakati hayoti, taqdiri bilan oshno bo'lib yashaydi. Asosiy qonun va qalb amrimiz ham o'zi shudir.

Darslarda o'z fikringizni bayon etishga, o'z fikringizni oshkora aytishga, mulohaza yuritishga, qiyoslashga, isbotlashga o'rganganingizdan juda-juda mamnunmiz. Bularning barchasida Konstitutsiyamiz siz uchun yo'lchi yulduz bo'ldi.



Oxirida sayohatimiz yakunlarini chiqaruvchi plakat yasashingizni taklif etamiz. Siz uyda tayyorlab kelgan qoralama topshiriqni bajarishda yordam beradi.

Bu jamoaviy ish ekanligini unutmang. Plakatga qo'yiladigan baho quyidagi omillarga bog'liqdir:

- mavzu tanlashga;
- taqdim etish usuliga;
- topqirligingizga;
- ishning saranjom bajarilganligiga.

Mana, siz bilan birga ushbu o'quv yilidagi sayohatimiz so'nggi sahifasini ham yozib tugatyapmiz. Ta'til chog'ida sizni Konstitutsiya olami bilan yozgi uchrashuvlar kutayotir. Keyinchalik sinfdoshlaringiz bilan o'z kuzatishlaringizni o'rtoqlashish maqsadida kuzating, eslab qoling.

Yangi o'quv yilida ko'rishguncha!

Bizning Konstitutsiya olamiga sayohatimiz yozgi ta'til davrida uzilib qoladi. Safar chog'ida siz Konstitutsiya mamlakatimiz Asosiy qonuni ekanligini bilib oldingiz. U oliy yuridik kuchga egadir. Bu esa mamlakatda Konstitutsiya qoidalariga zid qonun qabul qilinishi mumkin emas deganidir.

Konstitutsiya hayotingizda katta ahamiyatga egadir. Siz o'zingizni mamlakatda fuqaro deb his etasiz, negaki Konstitutsiyada sizning huquqlaringiz mustahkamlab qo'yilgan. Siz fuqaro tafakkuri va sa'y-harakatlari o'z mamlakati farovonligiga, o'z xalqi ravnaqiga yo'naltirilgan inson ekanligini anglab yetdingiz.

Davlat kabi tushuncha va uning jamiyat, fuqaro hayotidagi ahamiyati sizga endi yaqin va tushunarli bo'ldi.

Biz oilaning har bir odam bolasi hayotida muhimligi, ota-onalar huquq va majburiyatlari haqida so'z yuritdik, bolalar huquq va burchlarini aniqladik. Konstitutsiyada yozib qo'yilgan ko'pgina huquqlar orasida siz ega bo'lgan xususiy mulkdorlik huquqi ham bor. Siz xususiy mulk davlatnikidan qanday farqlanishini va ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini aniqlab oldingiz.

«Burchlarsiz huquqlar bo'lmaganidek, burchlar ham huquqlarsiz bo'lmaydi!» shiori, umid qilamizki, hamisha yodingizda turadi. Maktab o'quvchisining burchlarini o'ylaganingizda, ro'yxatini tuzganingizda va muhokama qilganingizda o'zingiz shunday xulosaga keldingiz. «Huquqlarimiz o'zga bir kishi huquqlari boshlangan joyda tugaydi!» shiori ham bir umrga tatigulikdir. Qonunlarga rioya etish, huquqlarni hurmat qilish – fuqarolarning asosiy burchlaridan biri. Deydilarki, chinakam fuqarolar o'z vatanini chin qalbdan sevadi. Vatanni sevish

maganini kiydiribdi, bolasi dunyodagi eng baxtiyor farzand bo'lib voyaga yetishini istar ekan-da.

O'g'li voyaga yetib, uylanibdi. Tez fursatda nevaralari tug'ilib, qariya kulbasi ularga tor bo'lib qolibdi. O'g'li dalada ketmon chopayotganda kelini uyni supurib-sidirar, ovqat pishirar ekan. Boshida qariya bolalarga qarabdi, ammo kundan kun belidan quvvat ketib, munkillab qolibdi.

Bir kuni kelini cholning o'g'liga debdi: «Otangiz jonimga tegib ketdi. Hech ishda yordam bermaydi, uyda bir xonani egalab yotibdi. Kunimiz zo'rg'a o'tib turibdi, ovqat o'zimizga ham yetmaydi. Endi kiyimini yuvishni ham, kasal bo'lib yotib qolganda unga qarashni ham xohlamayman. Yo otangizni deysiz, yo meni!»

Cholning o'g'li xotini bilan janjallashishni istamabdi. Cholni yelkasiga ortibdi-da, olis toqqa olib borib, bir eman daraxti ko'lankasida qoldirib ketibdi. O'g'li chol ko'z yoshi to'kibdi-yu, nega jondan sevgan o'g'li, peshona teri to'kib ulg'aytirgan farzandi kimsasiz joyda uni o'lishga tashlab ketayapti, deya yum-yum yig'labdi.

Ko'z yoshi tamomila qurib bitganidan so'ng tevarakka ko'z tashlabdi, cholga bu joylar tanish tuyulibdi, bu tog'larni, ko'lankasida yotgan purviqor daraxtni ko'rganini his etibdi. Shunda chol o'z bolaligi, ota-onasi, o'spirinligi va birinchi muhabbatini esga olibdi. O'g'li tug'ilganini ham, xotini bir kuni unga: «Onangiz jonimga tegib ketdi. Meni desangiz, uni uyda boshqa ko'rmayin!» deganini ham eslabdi.

Qariya tag'in bir marta tevaragidagi baland, sokin qoyalarga, soya solib turgan emanga ko'z tashlabdi-da, qachonlardir bechora onasini xuddi shu joyga tashlab ketganini eslabdi.



1. Chol nega yig'ladi?
2. Nega u shunday vaziyatga tushib qoldi?
3. Katta yoshdagi bolalar o'z ota-onasi xususida g'amxo'rlik qilmay qo'yishsa, nima bo'ladi?

Kattalarga hurmat ko'rsatish, ularga g'amxo'rlik qilish hamma vaqt xalqimizning an'anasi bo'lib kelgan, davlat ham bu an'ana muhimligini anglab yetib, katta yoshdagi bolalarning o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishini mamlakat Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida mustahkamlab qo'ydi.



Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

66-modda



1. Sizningcha, nega oilani jamiyat negizi (bo'g'ini) deb ataydilar?
2. Oilaga madad ko'rsatuvchi qanday davlat va jamoat tashkilotlarini bilasiz?
3. Jumlani davom ettiring: «Oila — bu...»
4. O'zbek xalqining qaysi oilaviy an'ana va udumlarini bilasiz?
5. Ota-onalar va bolalarning asosiy burchlarini sanang.
6. Sizningcha, har bir odam o'zining oiladagi majburiyatlarini bajarishi nega muhim?
7. Sizning qilmishingiz ota-onangiz janjali sababiga aylangan holni eslang. Ota-onangizni xafa qilmaslik uchun keyinchalik nima qilar edingiz?



Uyga vazifa.

Quyidagi savollarga javob berib, kichik insholar yozing:

1. Oilangizda qaysi an'analarga rioya etiladi?
2. Siz va qarindoshlaringiz bir-biringizga qanday g'amxo'rlik qilasiz?
3. Oilangizda nimalar sizni quvontiradi, nimalar tashvishlantiradi?

O'n sakkizinchi sayohat



YAKUNLOVCHI SAYOHAT



1. Rasmlarga qarab. 5-sinfda Konstitutsiya bo'yicha olgan bilimlaringiz asosida hikoya tuzing.
2. O'tgan bir yil ichida siz o'zingizning huquqiy savodxonligingiz o'sganligini his qilayapsizmi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlatimiz tashqi siyosatining asosiy maqsadlari davlat suveritetini himoya qilishda, barcha xalqlar tinchligi va xavfsizligini ta'minlash uchun hamma davlatlar bilan teng huquqli hamkorlik qilishda mujassamlashgandir.

Mustaqillikni e'lon qilgandan so'ng mamlakatimiz o'z tashqi siyosatini yurita boshladi. Tashqi siyosat to'g'risidagi qonunga muvofiq mamlakat hukumati quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- barcha davlatlar bilan faqat o'zaro manfaatlar va bir-biriga ishonch asosida hamkorlik qilish;
- mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda tinchlikni mustahkamlashga, mamlakat aholisi uchun xavfsizlikni saqlashga intilish;
- davlatlar o'rtasida yuzaga keluvchi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro qonunlarni bajarish.



2-topshiriq.

Guruhlarga bo'linib, dunyo xalqlariga xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va tinchlikni saqlash yo'llari bo'yicha takliflar kiritilgan murojaatnoma tayyorlang.



1. Sizningcha, mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlari davlatimiz rivojlanishiga qay tarzda yordam beradi?
2. Viloyatlar hokimlarini kim vazifasiga tayinlaydi?
3. Tashqi siyosat sohasida davlatimiz qanday qoidalarga amal qiladi?



Uyga vazifa.

Ommaviy axborot vositalaridan davlatimiz tomonidan Konstitutsiyada qayd etilgan tashqi siyosat tamoyillarini amalga oshirishga oid misollarni tanlab oling.

MUSTAQIL BO'LISH HUQUQI

O'n uchinchi sayohat



BU — MENIKI



1. Rasmdagilarning qaysilari alohida shaxsga tegishli bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
2. Qaysilari davlatga tegishli?
3. Ularning ichida ham davlatga, ham alohida shaxsga tegishli bo'lishi mumkinlari bormi?

Konstitutsiya olamiga sayohatimiz davom etadi. Yo'lda mashaqqatlarni bartaraf etish, noma'lum narsalarni anglab yetish, kashfiyotlar qilish, o'ziga va boshqalarga muammolar tug'dirmaslik uchun safarda ba'zi buyumlar yoki narsalarni o'zi bilan birga olish zarur.



1-topshiriq.

Guruhlarga bo'lining. O'ylab ko'ring-chi, qaysi eng zarur narsalarni sayohatga o'zingiz bilan birga olasiz? Har bir o'quvchi nega aynan ana shu narsalarni o'zi bilan birga olgani haqida guruhga so'zlab bersin. Shundan keyin sayohatda eng zaruri deb hisoblangan uch narsani tanlab oling. O'z tanlovingizni tushuntiring.

Albatta, siz tanlab olgan narsalar orasida o'z taassurotlaringizni yozib borish uchun bloknot va ruchka, yo'lda toliqib qolmaslik uchun mustahkam va qulay krossovka, balki eng

qiziq narsalarni suratga olish uchun videokamera bo'lsa kerak. «Bu narsalarni olishga kim ruxsat berdi?» – degan savolga, albatta: «Ular meniki, bular mening mulkim!» – deya javob berishingiz muqarrar.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi ana shu aytganlarimizni tasdiqlaydi, bino-barin: «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli...».

54-moddada esa bu fikr quyidagicha to'ldiriladi: «Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi».

Mulk nima?



Mulk — muayyan shaxsga tegishli bo'lgan, ushbu shaxs egalik qiladigan narsa.

Mulkdor — mulkning egasi bo'lgan shaxs.

Har bir narsaning o'z egasi bo'lishi kerak. Egasi bo'lmagan narsalar tufayli odamlar orasida da'volashuvlar, nizolar va hatto urushlar kelib chiqishi mumkin.



2-topshiriq.

Antuann de Sent-Ekzyuperining «Kichik Shahzoda» asaridan parchani o'qing.

Sayohat qila-qila Kichik Shahzoda «ishbilarmon odam»ga qarashli sayyoraga borib qoldi.


Ishbilarmon odam juda-juda band ekan. U yulduzlarni sanab hisoblardi. Ana shu mashg'ulotidan istar-istamas chalg'igach, Kichik Shahzodaning savollariga javob berdi.

- Besh million yulduz? Nima qilasan ularni?
- Hech nima. Men ularga egalik qilaman.
- Yulduzlarga egalik qilish senga nega kerak?
- Boy bo'lishim uchun.
- Qanday qilib yulduzlarga egalik qilish mumkin?
- Yulduzlar kimniki? — ming'illab so'radi korchalon.
- Bilmayman. Hech kimniki.

hukumati qarorlarining ijro etilishini tashkillashtiradi, kundalik hayotda vujudga keluvchi muammolarni hal etadi. Har bir viloyatga Prezident tomonidan tayinlanuvchi hokim rahbarlik qiladi. O'z navbatida viloyat hokimi tumanlar va shaharlar hokimlarini tayinlaydi. Davlatni boshqarishning bunday tartibi butun mamlakatda harakatlar muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Davlat birligini saqlab turish va yuzaga kelgan muammolarni vaqtida hal qilish mamlakatimizda juda qiyin ishdir, chunki O'zbekiston ulkan hududda joylashgan, uning yer maydoni 447,7 ming kvadrat kilometrdir. Ana shu hududga bir yo'la Buyuk Britaniya, Belgiya, Shveysariya va Avstriya singari davlatlarni joylashtirish mumkin. O'zbekistonda 30 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ular orasida 130 dan ortiq millatlar va elatlar va-killari bo'lib, davlatni boshqarayotganda ularning manfaatlarini inobatga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati



1. Rasmlarga qarang. Eslang, bizning davlatimiz o'z fuqarolarini davlatimiz ichkarisida va chet davlatlarda qanday qilib himoya qiladi?
2. BMT haqida nimalarni bilasiz?

ketdi. Diyorimiz baxt-saodat ramzi bo'lmish Humo qushi singari yangi hayot sari qanot qoqmoqda. Ko'p ishlar amalga oshirildi, ammo hali qilinishi kerak bo'lgan yumushlar, hal etilishi lozim bo'lgan katta-kichik muammolar ham bir talay. Bunyodkorlik, yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, inshootlar qurishning yagona asosi esa mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik saqlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishi mamlakatda barqarorlikni saqlash zaminidir.



Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'ysunish, rioya qilish yo'lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo'ladi.



O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir.

3-modda

Biroq mamlakatni boshqarish osonroq bo'lishi, aholi turli ehtiyojlarini yanada to'liqroq inobatga olish va yuzaga keluvchi muammolarni tezroq hal etish uchun davlat ichkarisi bir necha hududlarga bo'lingan. Ana shu bo'linishga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 ta viloyatdan tashkil topgan. O'zbekiston hududida 119 ta shahar, 115 ta shahar qo'rg'onchasi, 164 ta qishloq tumani va 1327 ta qishloq joylashgan.



1-topshiriq.

Tasavvur qiling, ana shu hududlardan har birida o'z qonunlari qabul qilingan va har birining o'z Konstitutsiyasi bor.

Bu qanday oqibatlarga olib kelgan bo'lardi?

Albatta, bu hududlar o'z Konstitutsiyasi va o'z qonunlariga ega emas. Mamlakat qonunlari va oliy hokimiyat organlari butun mamlakat uchun yagonadir hamda hukumat qarorlari barcha tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Har qaysi viloyat, tuman va shahar o'z mahalliy hokimiyat organiga ega bo'lib, mazkur organlar qonunlar va mamlakat

— Demak, meniki, chunki bunga birinchi bo'lib mening aqlim yetdi. Agar kallangga qandaydir g'oya birinchi bo'lib kelsa, unga patent olasan, endi u seniki. Yulduzlarga egalik qilaman, negaki menga dovur bironing bunga aqli yetmagan.

— Nima qilasan ularni, axir?

— Ularni tasarruf etaman, — dedi korchalon. — Ularni sanayman va qaytadan sanayman.

— Mening gulim bor, — dedi Kichik Shahzoda. Men unga har kuni ertalab suv quyaman. Egalik qilishim gulimga foydali. Yulduzlarga esa buning hech foydasi yo'q.



1. Kim mulkdor bo'lishi mumkin?
2. Mulkdor o'ziga tegishli narsani nima qilishi mumkin?



Egalik qilish — bu narsaning xo'jayini bo'lish demakdir.

Foydalanish — narsadan foydali xossalarni o'zlashtirish demakdir.

Tasarruf etish — narsa taqdirini hal qilish demakdir.



3-topshiriq.

Keltirilgan vaziyatlarda mulkdorlik huquqlaridan qaysilari ro'yobga chiqarilgan:

1. Buvasi Rustamga fotoapparat sovg'a qildi.
2. Umid har kuni koptogini hovliga olib chiqib, bolalar bilan futbol o'ynaydi.
3. Ilhom ukasiga o'z velosipedida uchishga ruxsat beradi.

Har bir vaziyatda qandaydir narsaning mulkdorini ko'rib turibmiz. Bu fotoapparatga egalik qiluvchi Rustam, koptogi bo'lgan Umiddir. Ilhom esa velosipedning xo'jayini.

Rustam endi o'z do'stlarini suratga tushirishi mumkin. Umid sinfdoshlari bilan birga koptok tepadi. Ilhomning velosipedida ukasi mazza qilib uchadi. Shunday qilib, narsaning (mulkning) egasi hammavaqt ham undan o'zi foydalanavermas ekan.



4-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlarda mulkdorlik huquqlaridan qaysilarini kuzatamiz:

1. Rustam ukasi Ilhom bilan fotoapparatni velosipedga almashish haqida ahdlashdi.
2. Darslarda futbol bo'yicha musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish uchun Umid koptogini jismoniy tarbiya muallimiga sovg'a qildi.

Ana shu vaziyatlarning har birida narsaning yangi xo'jayini paydo bo'ldi. Bolalar mulkni o'zlari qanday zarur va adolatli deb hisoblasalar, shunday tasarruf etishdi, uning taqdirini hal qilishdi.



5-topshiriq.

Keyin esa bunday bo'ldi:

1. Ilhom akasining tanlovini ma'qullamadi va velosipedni qaytarishni talab qildi. Rustamning buvasi esa nevarasi sovg'ani shu tarzda tasarruf etganini eshitib, anchagina xafa bo'ldi.
2. Umidning onasi direktor huzuriga shikoyat qilib keldi: u o'g'liga koptok sotib olib bergan, jismoniy tarbiya darslari uchun esa koptokni maktab sotib olishi kerak.

Guruhlariga bo'lining va savollarga javob bering.

1. Vaziyatlardan qaysi faktlar to'g'risida bilib oldingiz?
2. Nizo nimadan iborat?
3. Sizga bog'liq shunday hol ro'y berganda qanday ish tutar edingiz?

Bunda ham Konstitutsiya bizga madadga keladi, chunonchi, unda shunday belgilangan:



...Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

53-modda

O'n yettinchi sayohat



KONSTITUTSIYA VA QONUNLARGA RIOYA ETISH



1. Rasmlardagi odamlar albatta bo'ysunishi shart bo'lgan qoida va talablar qanday nomlanadi?
2. 2-rasmdagi ichki ishlar xodimi, maktab o'quvchilari bilan nimalar haqida suhbatlashmoqda? Ichki ishlar xodimlarining faoliyatlari bilan bizning huquqlarimiz va burchlarimiz o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
3. 3-rasmdagi shaxslar mamlakatimiz hududida qonunlarga bo'ysunish bo'yicha alohida imtiyozga egami?

Jonajon mamlakatimiz bo'ylab sayohat qilar, yo'l bosar ekan, barcha vatandoshlarimiz yurtimizning mustaqillik yillarida qanchalik o'zgarib ketganini his etadi. Poytaxtimiz Toshkent chiroyi kundan kun ochilib, tarovat va go'zallikka burkandi. Samarqand, Buxoro, Xiva singari qadimiy shaharlarimiz yosharib

Konstitutsiya diyori bo'ylab sayohatni davom ettirar ekansiz, fuqarolarning boshqa ko'plab burchlari (majburiyatlari) haqida bilib olasiz.



Jamiyatning demokratiya yo'lida jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidir.



1. Nega huquqlar burchlarsiz bo'lmaydi?
2. Agar hamma faqatgina huquqlarga ega bo'lib, hech qanday majburiyatlari bo'lmasa, qanday hol yuz berishi mumkin?
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy burchlarini aytib bering.
4. «O'zgalarning huquqlari boshlangan joyda bizning huquqlarimiz cheklanadi» degan fikrni tushuntirib bering.
5. Konstitutsiyaga muvofiq qaysi burchlarni bugundan o'qitish kerak?



Uyga vazifa.

Guruhlarga bo'lining va uyda Konstitutsiya olamiga sayohat chog'ida barcha bilib olganlaringizni namoyon etuvchi plakat tayyorlang.

Plakatda o'quv yilida bilib olingan narsalarning hammasini tasvirlash ancha mushkul. Butun materialga ko'z yugurtiring va sizga juda yoqqanini, esingizda qolganini tanlab oling. Shundan keyin bo'lg'usi plakatning qoralamasini tayyorlang va tasdiqlash uchun uni o'qituvchiga ko'rsating.

Ushbu holda qonun voyaga yetmagan, 14 yoshga to'lmaganlarning mulkdorlik huquqlarini cheklaydi: bolalar o'z narsalari yoki oila narsalariga egalik qilishi va foydalanishi mumkin, ammo faqat ota-ona ruxsati bilan tasarruf etishi lozim.



6-topshiriq.

Sizningcha, agar mulkdorlik huquqi cheklashlarsiz joriy etilsa, qaysi muammolar yuzaga kelishi mumkin?

1. Bir kishida.
2. Oilada.
3. Jamiyatda.

Davlatimiz o'zining Asosiy qonunida xususiy mulk huquqini barcha fuqarolar uchun joriy etgan, ammo bolalarni tasarruf etish huquqidan mahrum qilgan, chunki bu narsa ko'p hollarda boshqalarning huquqlariga putur yetkazishi mumkin.



...Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

54-modda



1. Mulkdor bo'lish huquqi nima?
2. Egalik qilish huquqini qanday tushunasiz?
3. Foydalanish huquqini qanday tushunasiz?
4. Tasarruf etish huquqini qanday tushunasiz?
5. Mulkdorlik huquqini himoya qilishning qaysi usullari bor?
6. Xususiy mulkka nimalar kiradi?




Uyga vazifa.

Darsdan tashqari paytda mahalla bo'ylab, maktabda va uning tevaragida ekskursiya uyushtiring. Quyidagi savollarga javob bering:

1. Yo'lda ko'zingiz tushgan narsalar kimning mulki sirasiga kiradi?
2. Bu mulkdan kim foydalanadi?
3. Bu mulk saqlanishi borasida kim g'amxo'rlik qiladi?



Davlat mulki



1. Rasmlarga qarang. Bu inshootlar kimning mulki bo'lishi mumkin?
2. Ulardan kim foydalana oladi? Qanday qilib?

Siz mahallaga tashrif buyurdingiz, maktabda va uning tevaragida aylandingiz, bular barchasi davlatga tegishli ekanligini aniqladingiz. Maktab, madaniyat uyi, kasalxona, kutubxona, tomoshabog' va stadion (o'yingoh), muzey, jamoat transporti, suv ombori va elektr stansiyasi — bular barchasi va yana ko'plab obyektlar davlat mulki hisoblanadi. Ular davlatimizga, butun O'zbekiston xalqiga, ya'ni barchamizga tegishlidir.

Qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash.



Soliq — davlat belgilagan va fuqarolardan undiradigan majburiy to'lovdur.

Soliq davlatning, masalan, fuqarolarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatishga, ta'limga, yo'llarga, jamoat transportiga, qurolli kuchlarga, davlat chegarasini qo'riqlashga qilinadigan xarajatlarni qoplash vositasidir.

Vatanni himoya qilish, harbiy xizmatni o'tash.

Vatan himoyasi — ehtimol tutilgan tajovuz ro'y bergan taqdirda uni mudofaa qilishdir. Vatanni himoya qilishda qatnashish nafaqat konstitutsiyaviy majburiyat, ayni mahalda har bir fuqaroning vatanparvarlik burchidir.



3-topshiriq.

Guruhlarda ishlash asnosida quyidagi vaziyatlarni muhokama qiling. Ulardan qaysi birida majburiyatlar (burchlar)ning ijro etilishi haqida so'z yuritilayotganini aniqlang.

1. Bolalar maktab hovlisida shanbalik o'tkazishdi, yig'ilgan axlatni yoqib yuborishdi.
2. Maktabdagi ishlarni muhokama qila turib qattiq baqirib-chaqirishdi.
3. Onasi o'g'lini tez-tez do'pposlaydi, tahqirlashni to'xtatishini talab qilishganda u: «O'g'il meniki. Uning uchun javob beraman, uni qanday kerak deb hisoblasam, shunday tarbiyalayman!» deya javob berdi.
4. Ekskursiyaga chiqqan bolalar qadimgi inshootlarda «Abdug'ani + Lola bu yerda bo'lishgan» degan tirnab yozilgan bitikni ko'rishdi.
5. Haydovchi tezlikni oshirib yo'l-transport hodisasini yuzaga keltirdi.

Ammo, faqat o'z huquqlaridan manfaatdor, biroq o'z majburiyatlari haqida kamdan kam qayg'uruvchi kishilar ham uchrab turadi.



2-topshiriq.

Sizningcha, agar biz huquqlarimizdan foydalanib, burchlarimizni bajarmay qo'ysak, nima ro'y beradi?

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobida bolalar uchun ham, kattalar uchun ham o'ta muhim bo'lgan fuqarolarning majburiyatlari yozib qo'yilgan.



Fuqaroning eng asosiy burchi Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa odamlarning huquqlari, erkinliklari, qadr-qimmatini va sha'nini hurmat qilish va boshqa kishilarning huquqlari boshlanadigan joyda bizning huquqlarimiz tugashini hamisha yodda tutishdir.

Konstitutsiyada yana qaysi majburiyatlar haqida so'z yuritiladi?

Mana, ular:

O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrab avaylash.

Qonun o'tmish osori atiqalarini avaylab asrashni bizning zimmamizga yuklaydi. Biz ular qayta tiklanishida ishtirok etishimiz mumkin, shu tariqa ajdodlarimiz kafti tafti tekkan muqaddas toshlar yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaymiz.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

O'spirin fuqarolar sifatida maktab o'quvchilari ham tabiat muhofazasi uchun ko'p ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Masalan, tabiat obyektlarini — o'z mahallasidagi daraxtni, hovuzlarni, tabiat yodgorliklari va hokazolarni o'z otalig'iga olishlari mumkin.



Davlat mulki — O'zbekistonning barcha fuqarolari egalik qiluvchi va foydalanuvchi mulkdir. Davlat mulki kishilar katta guruhi — O'zbekistonning barcha aholisi manfaatlarini qanoatlantirishga mo'ljallangan.



Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

55-modda

Qonun bular barchasi nafaqat mulk ekanligini, balki bizni qurshab turgan narsalar boylik ekanligini ta'kidlaydi. Ana shu mulkning hammasi jamiyatga kerak: barchamiz ta'lim olishimiz uchun maktablar, har birimiz salomatligimizni tiklashimiz uchun shifoxonalar, baquvvat va kuchli bo'lib o'sishimiz uchun stadionlar kerak. Bizga bu qadar zarur bo'lgan davlat mulkini ta'minlash xarajatlarini davlatimiz — O'zbekiston Respublikasi o'z zimmasiga olgan.



1-topshiriq.

Sayr qilar ekansiz, maktab mulkiga diqqat bilan razm soldingiz, maktab hovlisiga ham e'tibor bilan qaradingiz, nima kimga tegishli ekanligini aniqladingiz. O'ylab ko'ring va savollarga javob bering:

1. Davlat mulkiga kim egalik qiladi?
2. Davlat mulkini kim tasarruf etadi?
3. Davlat mulkidan kim foydalanadi?
4. Nega davlat o'z mulkidan foydalanishga ruxsat beradi?
5. Davlat mulkidan biz qay tariqa foydalanamiz?
6. Davlat mulki saqlanishiga kim javobgar bo'ladi?
7. Davlat mulki xususida qayg'urilmasa, nima bo'ladi?
8. Davlat mulkiga ziyon yetkazilsa, kim javobgar bo'ladi?

Biz va davlat mulki



1. Rasmlardagi tasvirlarning qanday umumiy jihatlari bor?
2. Biz ularga qanday munosabatda bo'lishimiz lozim?


Yo'llar, maktablar va kasalxonalar qurilishiga, ularni zamonaviy uskunalar bilan jihozlashga, yangi avtobuslar, samolyotlar sotib olishga mablag'ni davlat o'z budjetidan ajratadi. Darvoqe, davlat budjetini, ya'ni siz-u bizning pulimizni budjetdan sarflash bilan Oliy Majlis deputatlari shug'ullanadilar. Budjetga pullar katta yoshdagi barcha odamlar, ota-onangiz to'laydigan soliqlardan kelib tushadi. Demak, agar jamoat mulkini avaylab asramasak, ular belgilanganidan kamroq muddatda xizmat qiladi hamda ularni tiklashga ko'proq pul talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, ota-onalaringiz ko'proq soliq to'lashiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga binoan davlat mulkiga ziyon yetkazgan kishi uni to'lashi shart. Sizning o'rningizga bu jari-

O'n oltinchi sayohat



BIZNING BURCHLARIMIZ

Burchlarsiz huquqlar ham bo'lmaydi



1. Rasmlarga qarang. Ularda aks ettirilgan shaxslar qanday konstitutsiyaviy burchlarini ado etmoqdalar?
2. Sizning ham xuddi shunday burchlaringiz bormi? Misollar keltiring.

Endilikda bilasizki, Konstitutsiyamiz fuqarolarga katta va ko'p tomonlama huquqlarni havola etadi. Ammo huquqlar hamisha jiddiy majburiyatlarni ijro etish bilan bog'liq bo'ladi.



1-topshiriq.

Maktab o'quvchilarining qanday majburiyatlari bo'lishi kerak? Sizningcha, maktab o'quvchilarining huquq va burchlari qayerda yozib qo'yilgan? O'quvchilarning uchta asosiy burchini ayting.



Huquqlar va burchlar bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Burchlarsiz huquqlar bo'lmaganidek, huquqlarsiz burchlar ham bo'lmaydi — bu har bir jamiyatning prinsipidir.

Topshiriqni bajarar ekansiz, Rustam uchun maslahatlar va harakatlar rejasini tayyorlash mas'uliyatini zimmangizga oldingiz. Muammo guruhda muhokama qilinayotganda har kimning majburiyatini belgiladingiz. Guruh ishtirokchilari ishini bahalayotganda halollik qildingiz, shuning uchun ham sizni mas'uliyatli odam deb atash mumkin.



Topshiriq.

Sinf navbatchisining burchlarini o'qing. Ular o'quvchilar uchun og'irlik qilmaydimi? Bu ro'yxatni yana qanday majburiyatlar bilan to'ldirgan bo'ladingiz?

1. Navbatchilar sinf bo'yicha navbatchilar ro'yxati asosida tayinlanadi.
2. Navbatchilar o'qituvchiga sinf xonasini keyingi dars uchun tayyorlashda yordam beradi, sinf xonasining sarishtaligiga mas'uldir.
3. Navbatchilar tanaffus vaqtida sinf xonasini shamollatib, o'qituvchiga navbatdagi darsning o'quv materiallarini tayyorlashda yordam beradi, o'qituvchining iltimosi bilan daftarlarni tarqatib chiqadi.
4. Darslar tugagach, navbatchilar sinf xonasini keyingi kun uchun tayyorlaydilar (chaglarni artib chiqadilar, gullarga suv quyadilar va boshq.).
5. 1—4-sinf o'quvchilari sinf xonasini o'z imkoniyatlariga yarasha tozalaydilar (partalarni artadilar, gullarga suv quyadilar).



1. Javobgarlik nima?
2. Qaysi fazilatlar insonga mas'uliyatli bo'lishda yordam beradi?
3. Mas'uliyatsizlikning qanday oqibatlari bor?



Uyga vazifa.

O'tgan haftada nimalar uchun mas'ul bo'lganingizni eslang, yozing yoki rasmlarda tasvirlab bering.

mani ota-onangizdan undirishadi. Mulkka bunday munosabat Konstitutsiyada ham mustahkamlab qo'yilgan:



Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

53-modda



1. Nimalar davlat mulki sanaladi?
2. Maktab o'quvchilari qanday davlat mulkidan foydalanadilar?
3. 5-sinf o'quvchilari tomonidan davlat mulkiga yetkazilgan zararni kim to'laydi?
4. Shaxsiy mulkning davlatnikidan asosiy farqi nima-da?



Uyga vazifa.

1. Mulkdan foydalanish qoidalarini ta'riflab berishga tayyorlaning.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-, 55-moddalarini o'rganib chiqing va sharxlab berishga tayyorlaning.

MAJBURIYATLAR VA JAVOGBARLIK

O'n beshinchi sayohat



JAVOGBARLIK (MAS'ULIYAT) NIMA?



1. Rasmlarga qarang. Bu shaxslar o'z zimmlariga qanday mas'uliyatlarni olganlar?
2. Ular o'z vazifalarini to'laqonli bajarmasliklarining oqibatlarini haqida o'z fikringizni bildiring.

«Bu ishning javobgarligi og'ir!» yoki «Katta mas'uliyatni zimmasiga oldi!» qabilidagi so'zlarni tez-tez eshitib turasiz. Sizga nimadir javobgar yoki mas'ul ekanligingizni aytishsa, bu nimani anglatishi ustida o'ylab ko'ring.

Quyidagilar uchun javobgar bo'lish nimani anglatadi:

- ukangiz uchun;
- uyga vazifani bajarish uchun;

- makulatura yig'imi uchun;
- sport jihozlari uchun?



Mas'uliyat — o'z harakatlari va qilmishlari uchun javob berish majburiyati, qo'yilgan talabni bajarish zaruratidir.



1-topshiriq.

1. Vaziyatni o'qing.

Sinf futbol jamoasi kapitani etib saylashganida Rustam qattiq hayajonlangan edi. Bolalar anchadan beri futbol o'ynashmagan, o'zlari esa musobaqalarda qatnashishni va maktab birinchiligida g'olib bo'lishni juda-juda istashardi. Sinf Rustamni do'stona olqishladi. Uyga qaytganidan so'ng bolani o'y bosdi: «Anchadan beri mashq qilganim yo'q-ku, qoidalarni unutganman, zarbam ham kuchli emas. Ehtimol, kapitan bo'lmasligim kerakdir?»

Nima qilmoq kerak?	Kim amalga oshiradi?	Kim rahbarlik qiladi va yordamlashadi?	Rahbarning huquq va burchlari	Jamoaning huquq va burchlari

2. Rustam o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarishi uchun uning harakat rejasini tuzing. Rejani jadval ko'rinishida yozing:

Ish boshlanishidan avval guruhdagi majburiyatlarni taqsimlang:

- birinchisi muhokamani yuritadi;
- ikkinchisi fikrlarni yozib boradi;
- uchinchisi vaqtni nazorat qiladi;
- to'rtinchisi yozuvlarni rasmiylashtiradi;
- beshinchisi guruh ishini sinfga taqdim etadi.

3. Guruhning har bir qatnashchisi ishini baholang.